


## Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Viloyatimizda 2018 yil yanvar-martida 362 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,6 % kam demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (18,0 %), savdo sohasida (29,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (21,0 %), qurilish tarmog'ida (12,4 %), yashash va ovqatlanishda (7,2 %), tashish va saqlashda (3,0 %) tashkil etilgan.

**2018 yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**



2018 yilning yanvar–martida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 307,3 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 32,0 %) yoki 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʻsish surʻati 104,1 %ni tashkil qildi;



– 150,8 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 50,2 %) oʻzlashtirildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan oʻsish surʻati 136,0 %ni tashkil qildi;



– 120,6 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 96,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 106,2 % ni tashkil qildi;



– 263,3 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 63,9%), 2017 yilning yanvar–martiga nisbatan o`shish sur`ati 98,4 % ni tashkil qildi;



– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,5 % yoki 542,0 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 3,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 19,0 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 66,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 2,2 mln. AQSh dollariga yoki 113,1 % ga ko`p;




– avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,2 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 92,5 %i) ko`payishi ta`minlandi;


– yo`lovchi aylanmasining esa 3,3 %ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 98,6 %) ko`payishi ta`minlandi;

Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo tumani (111,3 mlrd.so`m), Guliston shahri (53,4 mlrd.so`m) va Boyovut (30,6 mlrd.so`m) tumani hissasiga to`g`ri keladi.


### Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



## 2018 yil yanvar-martida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati




## 2018 yil yanvar-martida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (202,8 mlrd.so'm), Sirdaryo (63,0 mlrd.so'm) va Guliston (49,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2018 yil yanvar-martida tuman va shahar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Guliston shahri (89,7 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (51,7 mlrd.so'm) va Yangier (26,3 mlrd.so'm) shahri hissasiga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning  
hududlar bo`yicha ulushi  
(% da)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>32,0</b>	<b>96,2</b>	<b>63,9</b>
<i>Shaharlar:</i>			
Guliston	56,8	97,5	41,9
Shirin	0,8	100,0	95,2
Yangiyer	42,6	97,4	97,4
<i>Tumanlar:</i>			
Boyovut	50,2	99,8	85,7
Guliston	46,3	100,0	98,2
Mirzaobod	100,0	91,5	98,9
Oqoltin	23,0	96,7	95,6
Sardoba	22,7	100,0	70,0
Sayhunobod	57,6	91,5	34,2
Sirdaryo	68,3	99,8	94,9
Xovos	65,6	74,9	98,6

Tuman va shaharlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Mirzaobod (100,0%), Sirdaryo (68,3 %) va Xovos (65,6 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Mirzaobod (98,9 %), Xovos (98,6 %), Guliston tumanlari (98,2 %), va Yangier (97,4 %) shahri tashkil etadi.

Qurilishda Shirin shahri (100,0 %), Guliston (100,0 %), Sardoba (100,0 %), Boyovut (99,8 %) va Sirdaryo (99,8 %) tumanlari tashkil etadi.

2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 42,5 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-martida 42,1 %). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.